

## ARAB TİLIDA YOZILGAN MANBALAR VA XUSUSIYATI.

**Boborahmatova Dilshoda Ismailovna**

Email:dilshodaboborahmatova@gmail.com.

Telefon raqami: +99891 967 79 77

Denov tadbirkorlik va pedagogika Institutining talabasi

**Qobilboyeva Zarnigor Bobomurod qizi**

Email:zarnigorqobilboyeva030307@gmail.com.

Telefon raqami: +998900729747

Denov tadbirkorlik va pedagogika Institutining talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada arab tilida yozilgan manbalar hamda arab tilining xususiyati haqida yozilgan bo'lib hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Oromiy, Klassik arab tili, tarixiy asrlar, Ibn an-Nadim, kufiy, suls, semud, Xuroson, Panjikent.

O'zbekistonning VII asr oxiridan boshlab, XII asrgacha bo'lgan tarixi ko'proq va deyarli afab tilidagi yozma manbalarda yoritilgan va bu an'ana keyincha Temuriylar davrigacha davom etgan. Eng qadimgi arab yozuvi haqida bizgacha yetib kelgan lixyan, semud, saf, annimar (eramizning 328-yili), zabad (eramizning 512-yili) yozuvlari hisoblanadi. Uning adabiy formasi islom dini paydo bo'lmasdan avval shakllangan. Ma'lumki, bu yozuv arablarnigina emas, balki arab bo'lmagan ko'pgina sharq xalqlarining adabiyoti va fanida qo'llanib kelgan harf-tovushli yozuvdir. U qadimgi finikiy yozuvining oromiy tarmog'idan kelib chiqqan. Milodning III–IV asrlarida shakllanib, arab tilining ifodasi uchun qo'llana boshlagan va "arab yozuvi" nomini olgan. Oromiy alifbosida 22 ta harf bo'lgan. Arablar bu alifboga 6 ta yangi tovush harf ( غ ظ ض ذ ح ث ) (qo'shib, 28 taga yetkazganlar. Harflar so'z boshida, so'z o'rtasida, so'z oxirida va alohida yozilish shakllariga ega. Arab yozuvidagi dastlabki manbalar tarixidan. Arab tilidagi yozma manbalar: Qur'oni Karim va uning tafsirlari; Hadislar; Muhammad payg'ambar va xilifalar hayotiga oid asarlar. Fihhga oid manbalar. Klassik arab tili O'rta va Yaqin Sharq tillarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Arab istilosi sababli va islom dinining tarqalishi bilan arab tilining ahamiyati Sharqda yanada kuchaydi. Bu davrda arab tili O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining madaniy hayotida xalqaro til rolini o'ynadi. Arab tili O'rta va Yaqin Sharqning ko'plab tillariga leksika sohasida juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi<sup>1</sup>. Turk, fors, afg'on (pushtu) va boshqa tillar lug'at boyligining 50-60 foizini arab so'zlari tashkil etadi. Arab tilida yozilgan turli fan

<sup>1</sup> Qodirov T.Sh., Aliyev D.I. Arab tili leksikologiyasi. ToshDShI, 2010. 110 b.

sohalariga oid manbalar (filologiya, lug'atlar, filosofiya, meditsina, geografiya va b.). Arab tilidagi tarixiy asrlar (al-Madoiniy, Tabariy, al-Balazuriy, al-Ya'qubiy, Beruniy va b.). Fanlar tasnifiga oid asarlar (Ibn an-Nadim, Abu Abdulloh al-Xorazmiy va b.). IX-XIII asrlar davomida arab tilidagi manbalarning ko'payishi. Forsiy tilda arab yozuvida yozilgan dastlabki manbalar. Arab yozuviga o'tish bosqichlari. Forsiy matnlardagi xat turlari. Xattotlik-kasb. Forsiy yozma merosning ko'payib borishi. Eng qadimgi forsiy qo'lyozmalar (islomga oid manbalar; turli fan sohalariga oid asarlar). Bizgacha yetib kelgan forsiy yozma meros haqida (Tarjimayi «Tarixi Tabari», hudud-ul-olam, Jahonnoma, «Zayn-ul-axbor» Gardiziy asari; Firdavsiy «Shohnoma» va b.). Arab yozuvidagi turkiy yozma meros. Turkiy yozma merosning ko'lami<sup>2</sup>. Turkiy tillardagi yozma merosning shakl jihatdan tarkibi; nazmda yozilgan asarlar, islomga oid asarlar, tarjima asarlar (arab va forsiy tillardan), sharqlar. Arab yozuvidagi turkiy qo'lyozma asarlarning miqdoriy ko'rsatkichlari (jahon qo'lyozma xazinalaridagi salmohi). Turkiy qo'lyozmalarning mazmuniy tarkibi: tarix, xronologiya, yozishmalar, biografiya, shajara, geografiya, bibliografiya, astronomiya, entsiklopediya, meditsina, falsafa, etika, matematika va h.k. Arab yozuvidagi turkiy qo'lyozmalarning tashqi belgilariga qarab bo'linishi. Turkiy qo'lyozmalarni o'rganish: Qutadqu bilik, Tarixi muluki ajam, Qur'on tafsiri, hissasi Rabg'uziy, Shayboniynoma, Tavorixi guzida. O'zbekistonning VII asr oxiridan boshlab, XII asrgacha bo'lgan tarixi ko'proq va deyarli arab tilidagi yozma manbalarda yoritilgan va bu an'ana keyincha ham Temuriylar davrigacha davom etgan. Arab yozuvining VII asrdan XIV asrgacha shakllangan va mashhur nazariyotchi xattotlar tomonidan e'tirof etilgan – kufiy, suls, nas'h, muhaqqaq, rayhoniyy, tavqe', riqo deb atalgan yetti uslubi mavjud. Ayrim xattotlar kufiyni asosiy uslublar qatoriga kiritmaydilar. Chunki, ular keyingi olti uslub kufiydan o'sib chiqib shakllangan, deb hisoblaydilar. XIV asr oxirlarida yuzaga kelgan nasta'liq va XVIII asrda paydo bo'lgan shikasta xatlarini ham ba'zi xattotlar arab yozuvining asosiy uslublariga qo'shadilar. Islom dini va arab tilining VII asr ikkinchi yarmidan boshlab Yaqin va O'rta Sharqdagi qator o'lkalarga, keyinroq esa Afrika, janubiy Yevropa va Osiyodagi ko'p joylarga tarqalishi bilan arab yozuvi ham birgalikda kirib bordi. Natijada arab yozuvi o'sha o'lkalardagi xalqlar tomonidan o'zlashtirildi va mahalliy tillarga moslashtirilgan holda qo'llana boshlandi<sup>3</sup>. Arab yozuvi Movarounnahrda VII asrning ikkinchi yarmida kirib keldi. VIII asr boshlarida arab xatida yozilgan hujjatlar saqlangan. Bunga misol qilib Panjkent hokimi Divashtichning Arab xalifaligining Xurosondagi noibiga

<sup>2</sup> Ковалев А.А., Шарбатов Г.Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.

<sup>3</sup> Белкин В.М. Общие тенденции развития арабской научно-технической терминологии в послевоенный период.

yo'llagan maktubini keltirish mumkin<sup>4</sup>. Arab yozuvi Movarounnahrga kirib kelgandan boshlab XIII asrlarga qadar bu yozuvda bitilgan birorta turkiy tildagi hujjat, manba hozirgacha ma'lum emas. XIII asrga qadar mazkur yozuvdagi barcha manbalar asosan arab tilida va qisman forstojik tilida kitobat qilingan. Bu davrda yurtimiz avval arab xalifaligi tarkibida, so'ngra Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarini boshdan kechirdi. Arab tilida vatanimiz tarixiga oid yozma manbalarni mualliflarning kelib chiqishiga qarab, ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh — arab tilida ijod etgan yurtimizdan chiqqan tarixchi va olimlar. Bular Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshgariy, Mahmud Zamaxshariy, Abu Said Sam'oniyy, Shahobuddin Muhammad Nisoviy va boshqalardir. Ushbu muarrixlar asarlarida ona-Vatanga muhabbat alohida namoyon bo'ladi. Bu, ayniqsa Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya" asarida xalqimiz qadimgi madaniyati to'g'risidagi ma'lumotlarida alohida ko'zga tashlanadi. Ikkinchi guruh — xorijlik olimlardan iborat bo'lib, ular yaratgan arab tilidagi asarlarida yurtimiz tarixi, madaniyati, siyosiy-ijtimoiy hayoti yoritilgan. Ushbu mualliflarning eng yiriklari Abulhasan Madoiniy (vaf. 840), Abulabbos al-Ya'qubiy (IX asr), Abubakr al-Balazuriy, Ibn Xurdodbeh (820 — taxm.913), Abu Ja'far Tabariy (839—923), Is'hoq al-Istahriy (850-934) va boshqalardir. Mazkur muarrixlar yurtimiz hududini umummusulmon olami, arab xalifaligining bir qismi sifatida yoritganlar. Ular, asosan arab xalifaligini ikki qismga, ya'ni arab va ajam — g'ayri arabga ajratib o'rganar edilar. Arab tilida yaratilgan tarixiy asarlar yoki yozma yodgorliklar quyidagi umumiy xususiyatlarga ega. Ular garchi arab tilida yozilgan bo'lsa-da, barchasida umumiy tarixni qamrab olishga, ya'ni tarixni jahon tarixi sifatida idrok etishga, talqin qilishga intilish alohida sezilib turadi. Bu manbalar uchun ilk tarixiy asar va namuna sifatida "Qur'oni karim" olinadi. Kitoblar ichida tarixchilar o'zlarining "Qur'oni karim", hadislar va "Payg'ambarlar qissalari", diniy rivoyatlarni yaxshi bilishini namoish etishga va ulardagi mashhur va ma'lum voqea, hodisa, rivoyat, aqidalardan unumli foydalanishga intilganlar. Arab tilidagi yozma manbalarning eng qadimgilari, asosan mumtoz yozuv turlaridan kufiyda "Qur'oni karim" va tafsir, hadislar nasx, suls yozuvlarida bitilgan. XV asrdan so'ng iste'molga nasta'liq yozuvi kirgan. Alohida farmon va hujjatlar ta'liq yozuvida bitilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Arab tilidagi manbalar O'rta osiyo tarixi uchun eng ishonchli asosiy manbalar bo'lib hisoblanar ekan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov T.Sh., Aliyev D.I. Arab tili leksikologiyasi. ToshDShI, 2010. 110 b.
2. Ковалев А.А., Шарбатов Г.Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.

<sup>4</sup> "Развитие языков в странах зарубежного Востока (послевоенный период)", М., "Наука", 1983. 164 б

3. Белкин В.М. Общие тенденции развития арабской научно-технической терминологии в послевоенный период.
4. “Развитие языков в странах зарубежного Востока (послевоенный период)”, М., “Наука”, 1983. 164 б

